
Inson_qadri_uchunFarg'onada ishsiz yoshlarga mehnat qurollari, talabalarga esa sertifikatlar topshirildi

Farg'ona shahrida xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning bandligini ta'minlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun Farg'ona politexnika institutida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 30 nafar yosh ishsiz fuqarolarga o'zini o'zi band qilishi uchun amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Har bir ishsiz yoshlar bilan so'rovnomalar o'tkazilib, ularning kasb-hunar qobiliyati, qiziqishi hisobga olindi. Ularning talab va istaklariga ko'ra mehnat qurollari topshirildi. Shuningdek, 27 nafar talaba yoshlarning ham kontrakt mablag'lari jamg'arma hisobidan to'lab berildi.

Tadbirda viloyat hokimi o'rinbosari Hurshidjon Ahmedov, shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, shahar hokimi o'rinbosarlari, Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi xodimlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

2022-06-08 09:12:59